

**Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги
Республика таълим маркази**

**Айрим фанлар чуқур ўрганиладиган давлат
ихтисослаштирилган умумтаълим
муассасаларининг 3-синфи учун
Математика фанидан 0,5 соатга
қисқартирилган**

Ўқув дастури

ТОШКЕНТ-2015 йил

TUZUVCHI MUALLIFLAR:

L.O'.O'rinboyeva - Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchisi

N.T.Ahmedova - RTM "Boshlang'ich ta'lim" bo'limi boshlig'i

O'QUV DASTURIGA TUSHUNTIRISH XATI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-PQ-sonli, 2014 yil 19 fevralda "Sog'lom bola yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PQ-2133-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi 203-sonli, 1999 yil 16 avgustda "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli, 2008 yil 7 avgustda "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 173-sonli, 2011 yil 9 sentyabrda "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalari to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 254-sonli, 2013 yil 8 mayda "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining 2014 yil 11 iyunda "Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'iga muvofiq Biologiya va Ona tili fanlarini chuqurlashtirilib o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarining 3-sinflari uchun Matematika fani dasturi quyidagi yo'nalishlarni qamrab olgan holda tuzildi:

O'quv reja tarkiban davlat komponentlaridan iborat.

Biologiya va Ona tili fanlari chuqur o'rganiladigan 3-sinflarda qo'shimcha soatlar Matematika fanidan 0,5 soat hajmda olib beriladi.

O'quv soatlarining taqsimoti

Biologiya va Ona tili fanlarini chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining 3-sinflarida "Matematika" fanidan choraklik va yillik o'quv soatlari miqdori.

Umumiy ajratilgan soat – 153 soat

O'quv choraklari	Haftalar soni	Ajratilgan soat		
		II		
1-chorak (2.09-3.11)	9 hafta	41		
2-chorak (11.11-29.12)	7 hafta	31		
3-chorak (10.01-20.03)	10 hafta	45		
4-chorak (1.04-24.05)	8 hafta	36		
Haftalik soat	-	4,5		
O'quv yili soati	-	153		

**Biologiya va Ona tili fani chuqur o'rganiladigan davlat umumta'lim
muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim
muassasalarining 3-sinflari uchun
Matematika fani o'quv mavzulari taqsimoti
(170-17=153 soat)**

№	O'quv dasturi materiali
1.	Yuzlik 2-sinfda o'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish (9 soat) Jadval ichida ko'paytirish va bo'lish. Bir xonali sonlarni ko'paytirish va bo'lish jadvali. Arifmetik amallar ishtirokidagi ifodalar. Tenglamalar. Sonning qismini va qismiga ko'ra sonni topish.
2.	Jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'lish (32 soat) 20 · 3, 3 · 20, 60 : 3, 100 : 2, 90 : 30 ko'rinishdagi ifodalar. Yig'indini songa ko'paytirish. 23 · 4, 4 · 23 ko'rinishdagi ifodalar. Sonni yig'indiga ko'paytirish. Harfli ifodalarning qiymatini topish. Yig'indini songa bo'lish. 39 : 3, 42 : 3, 72 : 3 ko'rinishdagi ifodalar. Bo'lishni tekshirish. Ikki xonali sonni ikki xonali songa bo'lish. Ko'paytirishni tekshirish. Qoldikli bo'lish. Qoldikli bo'lishni tekshirish. Uch va undan ortiq ko'paytuvchilarni ko'paytirish. O'tilgan mavzularga doir masalalar.
3.	MINGLIK Uch xonali sonlarni raqamlash (18 soat) Yuzliklar. Yuzlik, o'nlik va birliklardan sonlarni hosil qilish. Uch xonali sonlar. Minglik, yuzlik, o'nlik va birliklar orasidagi munosabatlar. Uch xonali sonni xona birliklari yig'indisi ko'rinishida tasvirlash. Uch xonali sonlarni taqqoslash. $x : 2 = 5$ ko'rinishdagi tenglamalar. Burchaklarning turlari: to'g'ri, o'tkir, o'tmas. Uchburchaklarning turlari: teng tomonli, teng yonli, turli tomonli. Geometrik shakllarni belgilash uchun harflarni qo'llash. Uzunlik o'lchovi birliklari: millimetr, santimetr, detsimetr, metr, kilometr. Ular orasidagi o'zaro munosabatlar (bilimlarni umumlashtirish).
4.	1000 ichida qo'shish va ayirish. Kattaliklar (30 soat) 1000 ichida qo'shish va ayirishning og'zaki usullari. 240 + 80, 240 – 80, 320 + 250, 580 – 350 ko'rinishdagi ifodalar. Yozma qo'shish va ayirish. Xonadan o'tmasdan qo'shish. Xonadan o'tmasdan ayirish. O'nlikdan o'tib qo'shish. Yuzlikdan o'tib qo'shish. O'nlikdan va yuzlikdan o'tib qo'shish. O'nlikdan o'tib ayirish. Yuzlikdan o'tib ayirish. O'nlikdan va yuzlikdan o'tib ayirish. 504–265 ko'rinishdagi ifodalar.

	$x + 125 = 142$, $156 + x = 342$, $x - 125 = 142$, $236 - x = 158$ ko'rinishdagi tenglamalar. O'tilgan mavzularga doir masalalar. Massa o'lchov birliklari: gramm, kilogramm, tsentner, tonna va ular orasidagi munosabatlar (umumlashtirish). Vaqt o'lchovi birliklari: minut, soat, kun, hafta, oy, yil. Ular orasidagi o'zaro munosabatlar (umumlashtirish).
5.	1000 ichida ko'paytirish va bo'lish. Kattaliklar (54 soat) Og'zaki ko'paytirish va bo'lish. Sonni 10, 100 ga ko'paytirish va bo'lish. $30 \cdot 4$, $200 \cdot 3$, $320 \cdot 3$, $800 : 4$, $490 : 7$, $600 : 20$, $900 : 300$, $240 : 30$ ko'rinishdagi ifodalar. Yozma ko'paytirish va bo'lish. Xonadan o'tmasdan ko'paytirish. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi (takrorlash). O'nlikdan o'tib ko'paytirish. Yuzlikdan o'tib ko'paytirish. O'nlikdan va yuzlikdan o'tib ko'paytirish. $396 : 3$, $346 : 2$, $852 : 4$, $216 : 3$, $276 : 4$, $668 : 4$, $735 : 7$ ko'rinishdagi ifodalar. Ko'paytirishni bo'lish orqali, bo'lishni ko'paytirish orqali tekshirish. Qoldikli bo'lish va natijasini tekshirish. $x \cdot 4 = 140$, $3 \cdot x = 126$, $x : 9 = 53$, $595 : x = 7$ ko'rinishdagi tenglamalar. $a + b$, $a - b$, $a \cdot b$ va $a : b$ ifodalarning qiymatini topish. O'tilgan mavzularga doir masalalar. Rim raqamlari. Vaqt o'lchovi birliklari: sekund, asr. Vaqt o'lchovi birliklari orasidagi munosabatlar (umumlashtirish). Raqamli soat.
6.	O'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash (10 soat)